

### PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JINOYATGA OID MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQUISH FAOLİYATI.

*“Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash -  
amalga oshirilayotgan barcha islohotlar  
samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini  
oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror  
vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir”*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
SH.M.Mirziyoyev.*

*Jumanov Asilbek Kayrat o'g'li,*

*O'zbekiston Respublikasi IIV*

*Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

**Annatsiya:** Ushbu maqola orqali siz, profilaktika inspektorlarining jinoyatga oid murojaatlarini ko'rib chiqish faoliyatining tushunchasi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, respublikamiz hududidagi ushbu faoliyat bilan shug'ullanish majburiyati yuklatilgan mas'ul-mansabdor shaxslarning faoliyati, shuningdek ushbu soxada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf yetishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, g'ayriijtimoiy xulq atvor, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs, huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi, ijtimoiy profilaktika, viktimologiya,

**Аннотация:** В данной статье вы, инспекторы по профилактике, определили понятие, значение и специфику деятельности по рассмотрению обращений по уголовным делам, деятельность ответственных должностных лиц, на которых возложена обязанность заниматься данной деятельностью на территории нашей республики, а также меры, направленные на устранение проблем и недостатков, возникающих в данной сфере.

**Ключевые слова:** инспектор по профилактике, ответственное должностное лицо, смарт-махалля, апелляция по уголовному делу, возбуждение уголовного дела, отказ в возбуждении уголовного дела.

**Annotation:** Through this article, you will be shown the concept, importance and specifics of the activities of preventive inspectors to consider Criminal Appeals, the activities of responsible-officials who are obliged to engage in this activity on the territory of the Republic, as well as measures aimed at eliminating the problems and shortcomings encountered in this area.

**Key words:** preventive inspector, responsible-official, Smart mahalla, criminal appeal, criminal prosecution, refusal to initiate a criminal case,

Kirish va Yangiliklar.

Bizga malumki har bir siyosiy elita o'z rivojlanishini, o'zining oliy maqsadiga aylantiradi va aynan ushbu maqsadga erishishi uchun dastlab u o'zining mamlakat tinchligi va osoyishtaligini taminlashi kerak hisoblanadi. Tarixan ma'lumki har bir davlat o'zining ichki xavfsizligini taminlamay turib xalqaro miqyosdagi kuchli va himoyalangan mudofaa qobiliyatiga ega davlat sifatida qaror topa olmaydi. Ushbu aytib o'tilgan shartlarni biz juda ko'plab qadim davlat faylasuf-u ulamolari, donishmandu sarkardalarining aytib o'tgan fikrlarida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa ushbu faoliyatda fuqarolar tomonidan kelib tushadigan murojaatlarning o'rni benihoya katta, chunki aynan ular bevosita jinoyat qurboni va shoxidi bo'lishadi. Shu sababli ham ushbu faoliyatni rivojlantirish hozirda, har bir davlat oldidagi jamoat xavfsizligi va osoyishtaligi saqlash uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilishi va ushbu murojaatlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi 2017 yil 11 sentabrdagi qonun bilan tartibga solinadi. Biroq qonunda ushbu ko'rib chiqish tartibi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, fuqarolik-protsessual, jinoyat protsessual, jinoyat ijroiya, xo'jalik-protsessual qonun hujjatlari va boshqa qonunlar bilan belgilangan murojaatlarga hamda davlat organlarining, shuningdek ular tarkibiy bo'linmalarining o'zaro yozishmalariga nisbatan tatbiq etilmasligi ko'rsatib o'tilgan. Ammo shunga qaramasdan, profilaktika xizmatlarining jismoniy va yuridik shaxslarning mazkur yo'nalishdagi murojaatlariga oid faoliyatining ham qisqacha mazmunini yoritib o'tishga harakat qilamiz. Mazkur qonunda O'zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslari bilan birga, xorijiy davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslari ham O'zbekiston Respublikasi davlat organlariga murojaat etish huquqiga egaligi ko'rsatib o'tilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qilinadigan murojaatlarning quyidagi turlari mavjud: ariza – huquqlarni, erkinliklarni va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimos bayon etilgan murojaat; taklif – davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaat; shikoyat – buzilgan huquqlarni, erkinliklarni tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaat. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: og'zaki; yozma; elektron shakllarda. Og'zaki shakldagi murojaatlar odatda, shaxs tomonidan yuzma-yuz yoki telefon orqali qilinib, murojaatning mazmuni ichki ishlar idoralarida yuritiladigan maxsus kitoblarda (masalan, MXTMda yuritiladigan «Fuqarolarning murojaatlarini qayd qilish» kitobida) yoki og'zaki murojaatni qabul qilish bayonnomasi kabi hujjatlarda qayd etiladi.

Respublikamizda murojaatlar bilan ishlash tizimi quyidagicha hisoblanadi: “respublika-viloyat-tuman-mahalla”. Mahallalar faoliyatini bazi hollarda MHTM muvofiqlashtiradi<sup>1</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF6196-son Farmoniga asosan mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi<sup>2</sup>

1 Mirziyoev Sh.M. Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident Farmoni– 2021 // URL: <https://lex.uz/docs/5344118>

2 (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son)

Murojaat deyilganda O‘zbekiston Respublikasining jinoyatprosessual qonunchiligida o‘rnatilgan prosssual qoidalarga binoan tergovga qadar tekshiruv yoki dastlabki tergov harakatlarini olib borish shart bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslarning jinoyat va hodisalarga oid arizalari, xabarlari va boshqa ma'lumotlariga aytiladi<sup>3</sup>

Jinoyat haqidagi xabar – bu prosessual hujjatlarni rasmiylashtirmasdan, balki korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar hamda ommaviy axborot vositalari tomonidan jinoyat va hodisalar haqida telefon va telegraf orqali berilgan, shuningdek signal beradigan qo‘riqlash moslamalarining ishlab ketishi natijasida va boshqa signallar orqali kelib tushgan hamda anonim xabarlardir.

Jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozma ravishda bildirilgan arz garchi shakl bo‘yicha ariza tariqasida e'tirof etilsada, mazmun jihatdan imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilib, anonim xususiyatga ega bo‘lganligi bois ariza deb tan olinmaydi.

Jinoyat haqidagi boshqa ma'lumotlar – bu surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning bevosita o‘zi tomonidan aniqlangan jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi izlar va ma'lumotlardir (JPK 322-m., 4-b.). Jinoyatga oid ariza, xabar, hodisalar to‘g‘risidagi ma'lumotlarning belgilangan muddatda ko‘rib chiqilishi va uning 2-E shakldagi hisoboti har yarim yilda va yillik hisobot shaklida shahar-tuman IIBlari hisob-qayd etish inspektori tomonidan olib boriladi.

1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga qayd etilmagan ariza va xabarlar yuzasidan qonuniy choralar ko‘rilganligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar ushbu kitoblarning oxirgi ustunida qayd etiladi va hisob-qayd etish inspektori tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib boriladi. Bu borada sud, prokuratura organlari va Axborot markazi bilan taqqoslash-solishtiruv ishlari olib boriladi. Jinoyatga oid arizlar ariza va bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi. Bunda arz fuqarolarning shaxsan o‘z qo‘li bilan yozilganida, bu ariza shaklida ifodalanadi. Bordiyu, arz qiluvchi o‘z arzini og‘zaki tarzda bayon etsa, u holda uning bayonnoma shaklida qayd etilishi talab etiladi. Bu talab aybini bo‘yniga olish haqidagi arzni qabul qilish tartibiga ham birdek amal qiladi. Jinoyat haqida kelib tushgan ariza va xabarlarini qabul qilishda jinoyatni hisobdan yashirish holatlarining oldini olish maqsadida barcha viloyat va tumanlarda navbatchilik qismi markazlashgan «102» xizmati bazasi joylashgan bu esa «Jinoyat va hodisalar haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilishning avtomatlashtirilgan tizimi» xisoblanadi. Bu tizimni bosqichma-bosqich Respublikamizning qolgan barcha hududlarida ham joriy etilishi belgilab olingan. Yuqorida biz tergovga qadar tekshiruv bir vaqtning o‘zida jis-moniy va yuridik shaxslarning jinoyat haqidagi murojaatlarini ko‘rib chiqish mazmuniga egaligi haqida fikr yuritdik. Shunday ekan, mazkur jarayon hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, qo‘shimcha hujjatlar va tushuntirishlar talab qilish bilan bir qatorda shaxsni ushlab turish va ekspertiza o‘tkazish prosessual harakatlarining ham amalga oshirilishini talab etadi. Ushbu prosessual harakatlar JPKda belgilangan umumiy asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi. Murojaatni ko‘rib chiqish natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- 1) jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqida;
- 2) ishni qo‘zg‘atishni rad qilish haqida;

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi 2017 11 sentyabr Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – 2017.

3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida.

Mazkur qarorlarning etarlicha asoslantirilganligi va belgilangan muddat ichida qabul qilinganligi murojaatning shunchalik qonun-lar talablariga rioya etilgan holda to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilganligini o'zida ifoda etadi.

Profilaktika inspektorining jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ularga beriladigan murojaatlarning mazmun-mohiyatiga bog'liq sanaladi.

Profilaktika inspektorlariga asosan quyidagi murojaatlar bilan qabulga kelishadi:

- ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi murojaatlar;
- jinoyat to'g'risidagi murojaatlar;
- hal etilishi profilaktika inspektorining vakolatlariga kirmaydigan masalalar bo'yicha murojaatlar;
- hal etilishi profilaktika inspektorining vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha murojaatlar.

Ichki ishlar organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va murojaat etish huquqini ta'minlash jamiyatda:

birinchidan, murojaat qiluvchi jismoniy va yuridik shaxslarning

huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash; ikkinchidan, boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va

erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash; uchinchidan, axborot va jamiyat xavfsizligini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiluvchi qonun hujjatlarining talablariga bevosita rioya etishni taqozo etadi.<sup>4</sup>

### *Xorij tajribalari*

Ushbu faoliyat bo'yicha chet el davlatlaridan Germaniya, Bolgariya, Polsha, Litva va Estoniya kabi bir qator xorij davlatlarida jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish va ularning barcha murojaatlari ma'muriy tartib-taomillarga asoslangan holda hal qilinadi. Shu bois seminarda Germaniyaning eng ilg'or tajribasi ko'rib chiqildi, yakka tartibdagi va jamoaviy murojaatlarga bo'lgan huquq Germaniya konstitusiyasining tegishli moddasida mustaxkamlangan bo'lib, "xar bir inson yakka tartibda yoki boshqalar bilan birgalikda vakolatli muassasalar yoki xalq vakillik organlariga yozma iltimosnoma yoki shikoyat qilish huquqiga ega" deb belgilangan.

S.Kenjaevning fikriga ko'ra "murojaat – fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish tatibining muhim shakli, jamoatchilik fikrini ifodalash vositasi, aniq ob'ektlardagi qonunlarning bo'zilishi haqidagi ahborot manbalaridir. Murojaatlarda davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari faoliyatidagi kamchiliklar, qonunlarning bo'zilishi

---

<sup>4</sup> Azizov E.U. Ichki ishlar organlarida maxfiy ish yuritishning o'ziga xos xususiyatlari // Jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor apparatlar faoliyatini takomillash-tirishning dolzarb muammolari: Ilmiy maqolalar to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A.Hamdov. –.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. B – 230.

jismoniy va yuridik shahslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ko'rsatib o'tiladi". qonundir.

Angliyada petisiya huquqi axolining oliy xokimiyat organlariga (monarx eki qonun chiqaruvchi Majlislariga) qonunlar qabul qilish (bekor qilish) yoki biron bir muxim davlat qarorlarini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilish huquqi sifatida asl xolicha saqlanib qolgan.

1689 yili "Huquqlar to'g'risidagi bill"da qiroлга fuqarolar tomonidan cheklanmagan tarzda murojaat qilish huquqi berilgan va bunda murojaat qiluvchilarni xibsga olish va javobgarlikka tortish noqonuniy deb tan olingan.

Hozirgi kunda Buyuk britaniyada davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari xatti-harakatlari xamda inson va fuqarolik huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq fuqarolar murojaatlarining umumiy tartibini tartibga soluvchi yagona meyoriy xujjat mavjud emas.

Bunday tartibga solish amaliyoti tarixan rivojlangan bo'lib, parlament va xukumatning Qonunchilik xujjatlari, sud presedentlari, urf-odatlar va ananalari bilan belgilanadi. Angliya qonunchiligiga muvofiq shikoyat qilish huquqi xech qaerda maxsus qayd etilmagan, biroq norozi bo'lgan xar bir shaxs o'z xohishiga ko'ra tegishli vazir, sud yoki parlamentga murojaat qilishi mumkin.

Buyuk Britaniya murojaatlar institutining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, davlat organlari va ular mansabdor shaxslarining noqonuniy xarakteriga qarshi fuqarolar tomonidan berilgan murojaatlar xam parlament orqali amalga oshiriladi. Angliya va Uelsda prokuratura organlari faoliyat yuritmaydi, Ingliz Sudlarida ko'pchilik jinoyat ishlari bo'yicha ayblov polisiya yoki aloxida shaxslar tomonidan, faqat eng og'ir jinoyatlar bo'yicha ayblov Bosh Attorney idoralari tomonidan amalga oshiriladi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak bugungi kunda mahalla profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyatga oid murojaatlarini ko'rib chiqish va qonuniy, to'la, har tomonlama hal etish mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi. Quvonali jihati shundaki, fuqarolarning ariza va shikoyatlari hal etishda, jamoatchilik bilan hamkorlik yuksak cho'qqiga ko'tarildi va bu aholining amaldagi qonunlarga, murojaatlarni ko'rib chiqqan davlat idorasiga bo'lgan ishonchi yanada mustahkamlamoqda..

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 2023y;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuni//. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2014
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining profilaktika xizmati bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-2896 sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining "Ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, habarlar hamda boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib

chiqish va hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi 180-sonli buyrug'i

5. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi 2017 11 sentyabr Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017.

6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 12 dekabrda «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida qonuni